



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 8 (904)
8-may, Juma
2020-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

SARDOBA, BIZ SEN BILAN BIRGAMIZ!

**B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati**

2020-yil insoniyatni koronavirus pandemiyasi bilan sinadi. Kasallikka qarshi o‘zini jahonning eng ilg‘orlari deb biladiganlar ham shoshib qolgani rost. Buni aholisi orasida kasallanganlar soni tez oshib ketayotganligi va qurbanolar soni ortgan mamlakatlarda ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatimizda esa xalqimiz orasida koronavirusdan saqlanish uchun ko‘rilgan qat’iy tadbirlar keng targ‘ib qilinganligi hamda sog‘liqni saqlash xodimlari say‘i- harakati bilan kasallik bir-muncha ortga chekindi.

Ammo ana shu kunlarda joriy yil 1-may tongida Sardoba suv omborida suv ketishi natijasida Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlaridagi jami 22 ta aholi punktidagi 60 ming 450 nafardan ortiq fuqarolar Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga vaqtinchalik ko‘chirildi.

Prezidentimiz Sirdaryoda talafot yetgan hududlar ichiga kirib borib, uy-joyi buzilgan, jabr ko‘rgan yurtdoshlarimiz bilan yuzma-yuz suhbatlashdi, “Shunday og‘ir paytda hammamiz sizlarning yoningizdamiz”, – deb ularning ko‘nglini ko‘tardi, ularga tayanch va suyanch bo‘ldi. Ko‘rilgan tezkor choralar boshiga tashvish tushgan minglab odamlarni sarosima va tahlikadan saqlab qoldi.

Tabiiy ofatdan zarar ko‘rgan hududlar aholisi tezkorlik bilan xavfsiz joylarga ko‘chirildi va vaqtincha yashab turishlari uchun zarur sharoit yaratildi, boshpana, oziq-ovqat va dori-darmon bilan ta’mindan.

El boshiga mushkul-mashaqqat tushganda kishining kimligi bilinadi, kutilmagan ofatlar, sinovlar xalqni jipslashtiradi.

Ofat xabarini eshitgan yurtdoshlarimiz sardobaliklardan xavotir olib ularga yordam berishga shoshildi. Xususan, Sirdaryoga mamlakatimizning barcha

hududlaridan “Muruvvat karvonlari” mutazam borib turdi. Mushkul vaziyatda qolgan odamlarga ulkan hajmda insonparvarlik yordami – zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va hatto bolalar uchun turli o‘yinchoqlar yetkazib berildi. Yondosh tumanlar va qo‘shni viloyatlarda yurtdoshlarimiz suv toshqinidan zarar ko‘rgan odamlarga o‘z uyidan joy berdi. Bu yurtimizda ham karantin tartibi saqlanib turgan sharoitda, eng avvalo, oddiy insoniy mehr-muruvvatga, ko‘makka muhtoj odamlarga ko‘rsatilayotgan oljanob amaliy yordamning ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Bu xabarni eshitgan yurtdoshlarimiz sirdaryoliklarga yordam berish uchun shoshildi.

Shu kuni Toshkent shahrida bir necha ko‘ngilli guruhlar ilk yordam karvon Hayatt Regency mehmonxonasi yonidan 10 ga yaqin yuk mashinalarida yubordi.

Shuningdek, Samarqand viloyat ja-moatchiligi ham kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak va ro‘zg‘or buyumlari bilan yordam berish tashabbusi bilan chiqqan edi. Bu xayrli ishga viloyatdagi har bir tuman, shaharda belgilangan manzillarda qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlari, dori-darmon va boshqa kundalik ehtiyoj uchun zarur vositalar 30 dan ortiq mashinaga yuk bo‘ldi.

Sirdaryoliklar boshiga tushgan bu tashvish boshqa viloyatlar aholisida ham-dardlik hissini uyg‘otib yubordi. Barcha viloyatlardan oziq-ovqat, kiyim-kechak va zaruriy mahsulotlarni o‘z ichiga olgan karvonlar jo‘natildi. Ijtimoiy tarmoqlarda faol fuqarolar «Biz birmagimiz», «Yelka-ma yelka» kabi guruhlar tashkil etishib, sirdaryoliklarga mablag‘ va zarur mahsulotlar yig‘a boshladи.

Mana shunday xayrli ishlarda mamlakatimiz yoshlari ham o‘z hissasini qo‘shdi. Jumladan, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Farg‘ona viloyati kengashi, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi, yosh tadbirkorlar va saxovatli insonlar ko‘magida Sirdaryoga xayriya karvon yuborildi. Insonparvarlik yordamida tibbiy va shaxsiy gigiyenik vositalar va boshqa zarur mahsulotlar bor.

Bunday hamjihatlik xalqimizning tabida, qonida bor desak ham yanglishman bo‘lamiz. Ikkinci jahon urushi yillarda yurtdoshlarimiz bir-biriga va boshqa millat vakillariga qanday mehr ko‘rsatgan bo‘lsa mehr-sahovvat to‘lqini imkonli bor insonlarni huddi shunday bir ahillikka, bidadlikka chaqirdi. Matonatli xalq doimo bir-biriga maslakdosh va suyanch bo‘la oladi. Bunga suv toshqini sabab yana bir bor guvoh bo‘ldi.

Ha, bugun butun el-yurtimiz oyoqqa qalqdi. Ayniqsa, Ramazon oyida qalbini xayr-u ehson hamda shafqat va shafoat his-tuyg‘ulari chulg‘agan hamyurtlarimiz tabiat injiqqliklari tufayli ozor yetgan hech bir inson saxovat va muruvvatdan chetda qolmasligi uchun astoydil sa‘y-harakat qilishdi.

Tez kunlarda toshqindan zarar ko‘rgan hududlarda hayot o‘z maromiga tusha boshladi.

Prezidentimiz tomonidan Sardoba suv omborida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatda yetkazilgan zararni qoplash barobarida yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha topshiriq berildi. Bu bo‘yicha 11 ta tijorat banklari, vazirliklar, tarmoqlar bilan birgalikda talafot yetgan tadbirkorlarning zararlarini qoplash, ularga yengillik yaratish, ya‘ni tadbirkorlarimiz kredit olgan bo‘lsa, kreditlari muddatini uzaytirib berish ta’mindan.

Shuningdek, yangi qurilayotgan mas-sivlarda, viloyatning uchta tumanida yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha yangi loyihiilar shakllantirildi. Loyihalar ishga tushishi natijasida 10 mingga ya-qin yangi ishchi o‘rinlari yaratiladi.

Bugun Sardoba suv omborida sodir bo‘lgan favqulodda vaziyat oqibatida ta’mirlanishi zarur uy-joylar ham, yangi quriladiganlari ham davlat tomonidan bepul qurib-ta’mirlab beriladi. Odamlar yangi ko‘p qavatlari uylarga va o‘zlari ning ta’mirlangan hovli-joylariga to‘liq ko‘chib o‘tishi mumkin bo‘ladi. Shu bila-n birga, uylari zararlangan odamlarning ilgarigi hovlilari ham o‘zlarida qoladi.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning bidadligi, mehr-oqibati, bir-biriga dalda bo‘lib bu sinovni yengib o‘tib aholiga munosib shart-sharoit yaratilishiga ishonamiz.

MAQSADLAR SARI YO‘L

Ifixor



«Necha qadam yurasan?»

– Kuniga necha qadam yurasan, Islom? – so‘rayman institutimizning Pediatriya fakulteti 112-guruh talabasi Islom Karimovdan.

– O‘qish paytida, agar juda erta tursam, oila a’zolarim uchun nonushta tayyorlayman. Oilaviy nonushtadan keyin oyim bilan birga ular ishlaydigan o‘quv markaziga boraman. U yerda onam dars o‘tsalar men kompyuterda o‘z ishlarimi qilaman. Keyin institutga o‘qishga boraman o‘qishdan keyin Ibn Sino mакtabida dars o‘tamani. Bu zahira guruhi bo‘lib, ular ham bo‘lajak xalqaro olimpiadalarga qatnashuvchilar: 9-sinf o‘quvchilari. Ushbu darslardan so‘ng o‘zim o‘rganayotgan ingliz tili darslariga yo‘l olaman. Uyga kechki to‘qqiz yoki to‘qqiz yarimlarda kirib kelaman.

Men shunday savol berganimning o‘z sababi bor edi. Axir javobdan ko‘rinib turibdiki yuqori ko‘rsatkichga erisha olgan odam vaqtning qadriga yetadi, undan samarali foydalanadi. Islomning ana shunday bo‘lishiga kim yoki nima sababchi? Oila, ota-onami? Mahalla – do‘s-tlarmi? Maktabmi?

Bugungi kunda oilaviy muhit yurtimizda bola tarbiyasi, uning qiziqishlarini rivojlantirishga, kichik yoshidan boshlab e’tibor berish zarurligi, onalarning bolalari uch yoshga to‘lgunga qadar bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratilmoqda. Bog‘cha sharoitlariga va undagi ta‘lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratilmoqda. Islomning dadasi harbiy bo‘lib, oiladagi tartib-intizom ko‘p jihatdan otaga, bolaga bo‘lgan mehr va

uning ta’lim olishidagi muttazam nazorat va yordam onaga bog‘liq edi. Chunki Islomning oyijonisi o‘qituvchi, Islom ingliz tilini mukammal bilishda va o‘rganishni davom ettirayotganida ham oilasining hissasi katta. Maktabning boshlang‘ich sinflarida Islom to‘laqonli a’lochi, biror marta kundalikka to‘rt tushib qolsa juda xafa bo‘lar edi. Ammo maktabning yuqori sinflariga borib, o‘qishi biroz sustlashdi. U o‘rtoqlari bilan ko‘proq ko‘chada vaqt o‘tkazadigan bo‘lib qolgandi.

«Kim bo‘lmoqchisan?»

Bir kuni dadasi uni yoniga chaqirib, kelajakda kim bo‘lishi haqida so‘rab qoldi. Qizig‘i, shu paytgacha bu haqda o‘zi hech o‘ylab ko‘rмаган екан. Dadasi odatda Islomning ukalariga sen shifokor bo‘lasan, sen harbiy bo‘lasan der edi. Bir kuni oyijoni Islomga qarab: – Bolam, stomatolog bo‘lsang-chi! –deb qoldilar. Bu orada Toshkent Pediatriya tibbiyat instituti qoshidagi litsey o‘quvchilari orasida Xalqaro Mendeleev olimpiadasiga tayyorgarlik bo‘layotgani haqidagi xabarni ham eshitib qoldi. Aynan shu xabar Islomni bu o‘quv dargohiga chorladi. Axir kimyo fani Islomning sevimli fani edi.

Litsey

Litseyga o‘qishga kelgach u bo‘lg‘usi olimpiadachilar guruhiga qatnay boshladi. Bu guruhdagi bolalar avvalgi xalqaro olimpiadalari qatnashchilari edi. Islomning ularga qarab havasi kelar va qachondir shunday yuqori darajaga yetishni orzu qilar edi. Ammo quruq orzu bilan ish bitmasligi, kimyoga ko‘p vaqt sarflashi kerakligini tushunardi. Guruhda Behzod aka degan ustoz dars o‘tar edi. Behzod ham Mendeleev va jahon olimpiadalarida ishtirot etgan, ilk bor oltin, kumush medallariga sazovor bo‘lgan. Islom o‘z oldiga ularga o‘xhashni maqsad qilib qo‘yadi. Behzod akaning o‘qituvchilardan farqi esa u mavzuni shunchaki so‘rash, ma’lumotlar berish bilan kifoyalaniq qolmasdi. U shunday sodda tilda asosiy narsalarni tizimda va ketma-ketlikda tushuntirib berardi. Masalan, uy qanday quriladi? Oldin asos fundamenti solinadi, keyin g‘isht teriladi, so‘ngra tom yopiladi.

Behzod aka kimyoviy jarayonlarni shunday oddiy misollar bilan tushuntirib berar edilar. Mohir ustozi hattoki o‘z o‘quvchilarini doskaga chiqarib ularning harakatlari orqali kimyoviy jarayonlarni oddiy va tushunarli qilib aytib berardi. Masalan, oddiy molekula qutbli yo qutbsiz ekanligini tushuntirish uchun u doska oldiga chiqqan o‘quvchisini ikki yonidan ikki do‘sti tortib turar edi. Ikkala chetdan tortib turgan bolalarning kuchi teng bo‘lgani uchun o‘rtadagi bola siljimasdi.

Shuning uchun bu molekula qutbsiz hisoblanardi. Behzod akasining Islom istiqomat qiladigan mahallada yashashi esa bo‘lajak jahon olimpiadasi g‘olibi uchun yana bir imkoniyat edi. Odatda, ular o‘qishdan uyga birga qaytishganida Behzod olimpiada jarayoni, u yerda qatnashuvchilar o‘zlarini qanday tutishlari kerakligi, ruhini tushirmslik zarurligi haqida ko‘p gapirar, misollar keltirar edi. Bu tajribadan voqiflik Islomga barcha olimpiada, ayniqsa, Sankt-Peterburgda o‘tkaziladigan Mendeleev olimpiadasida oltin medalga sazovor bo‘lishida katta yordam berdi.

Olimpiadalar

Islom birinchi marotaba Belarussiyada bo‘lgan 52 Mendeleev olimpiadasida qatnashib, bronza medaliga sazovor bo‘ladi. Uning fikricha, olimpiada nafaqat o‘quvching bilimini, balki irodasini ham sinaydigan tanlov. Axir o‘quvchilarning barchasi bir xil vaqt mobaynida bir xil misol yechishadi. Islom bilan birgalikda borgan bilim jihatdan ancha kuchli o‘quvchilarning ba’zilari medal olish-maganiga sabab, o‘z hislarini jilovlay olmanligida bo‘ldi. Bunday qiyin vaziyatda Islom tushkun kayfiyatga tushmagani ustozining nasihatlari tufayli edi. Bu nasihatlarga yanada ko‘proq qulqoq tutgan Islom keyingi bosqichda Sankt-Peterburgda o‘tkazilgan 53-olimpiada oltin medal olib qaytdi. Va bu katta g‘alaba bo‘ldi. Chunki O‘zbekiston jamoasining eng yuqori natijasi – oltin medalni ular 2014-yilda qo‘lga kiritishgan edi. Masalalarni to‘g‘ri ishlab, laboratoriya ishlarini ko‘ngildagiday bajarsa ham, Islom natijalar e’lon qilinishidan

ancha hayajonlandi. Mana taqdirlash jarayoni ham boshlandi. Kumush medalning oxirgi si egasiga topshirilgach litsey direktori Ortiq aka Emonqulov Islomni bag‘riga bosdi. U esa o‘zini juda baxtli his qilar edi. Yelkasidan tog‘ ag‘darilgan, maqsadiga erishgan edi. Keyingi marra Fransiyadagi Jahon olimpiadasida kumush medalni olish edi.

“Matematika”

Islom o‘qishini yaxshi o‘zlashtirishiga, ko‘plab yutuqlariga sabab bo‘lgan omillardan biri matematikani yaxshi o‘rganganidan deb biladi. Matematika bu faqat raqamlar va amallar emas, balki uning ostida yotgan mohiyat deb o‘ylaydi u. Uning fikricha har bir dunyoni ilmiy idrok etishda matematikaning o‘rni beqiyos.

Orzular

Albatta, inson orzu qilar ekan o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi. Institutimizning birinchi bosqich talabasi Islom Karimovning eng ezgu orzusi, avvalo, o‘z oilasi, o‘z xalqiga va butun jamiyatga yaxshilik qilish, baxt ulashish. Bu maqsadga yetish uchun qiladigan ishlari bilim yordamida cho‘qqiga chiqish, moliyaviy jihatdan ham ilmiy va boshqa kashfiyotlar yordamida xalqiga naf keltirish unga yordam berish. Masalan, hozirgi kunda koronavirusga qarshi vaksina yaratgan odam insoniyatni shu balodan qutqaradi. Yoki karantin paytida yolg‘iz va nogironligi bo‘lgan shaxslarga moddiy yordam bera oladigan odam jamiyatga naf keltirgan hisoblanadi. Keyinchalik Islom o‘zi taskin topadigan oilaviy muhiti va yaxshi ko‘radigan ishi bo‘lishini orzu qiladi. Buning uchun esa imkoniyatlardan to‘g‘ri, vaqtadan unumli foydalanish, sabr va yana mehnat talab etiladi. Mehnat qilishni esa Islom biladi.

Men yuqorida Islomga “Kuni bo‘yi necha qadam yurasan?”-deb savol bergan edim. Suhbatimiz so‘nggida u menga bu savolga shunday javob berdi: “Bir kunda maqsadimga yetguncha qadam bosaman, bu degani qadamlar soni hech qachon tugamaydi, faqat kun tugab qoladi xolos“

BOBOM HAQIDA



Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga ham bu yil 75 yil to'ldi. Maktab davrlarida "Hech kim va hech qachon unitilmaydi" mavzusida insholar yozar edik, tadbirdarda qatnashar edik. Bugun men ham shu g'alabaga ozmi-ko'pmi oz hissasini qo'shgan bobom haqlarida, bizga bergen o'gtitari, ta'lif tarbiyalari xususida yozgim keldi.

Kallomullo Arslonov 1912-yilda tug'ilgan edilar. 1941-yilda urushga ketib, 1945-yilda urushdan eson-omon

qaytib kelganlar. Oxirgi jang qilgan joyimiz yapon chegaralarida bo'lgan deb xotirlardilar. Singlim Fotima bir o'zi uya kirishga nimagadir qo'rqrar edi. Bir kuni bu holatni bobom sezib qoldilar va biz nabiralarni yig'ib, urush vaqtida boshlaridan o'tgan voqeani so'zlab berdilar. Qishloqlarni fashist gazandalardan tozalashgandan keyin, bir uya kirishgan va u yerda yig'ilish o'tkazishgan. Xonaga kirganda bobom devorda bir narsaga ko'zlar tushibdi, sekin qalamlari bilan ko'chirsalar odamni boshini ko'ribdilar. Kechqurun bo'lganligi uchun xonadagi

safdoshlariga bu haqda aytmajanlar, chunki hamma charchagan qo'rqtishning foydasi yo'q, "duo" o'qib ertalab aytishga qaror qilibdilar. "Boram boshimizdan shunday holatlar o'tganda ham qo'rqmaslikka harakat qilganmiz", -deganlaridan so'ng singlimda bunday qo'rqish his tuyg'usi yo'qolib ketdi. Shu holatni singlim haligacha eslab yuradi. Men ham bobomdan bir umrga minnatdor bo'lib kelaman, chunki ular o'zlarini chiroyi "yozuv xatlarini" yozishni o'rgatganlar. Yoz bo'ldi deguncha barcha nabiralar boba-buvilarning uyiga oshiqqandek, biz ham 6 ta bola yozgi ta'tilni ularning quchog'ida o'tkazar edik. Shunda bobom: "Qani bugun chiroyi husnixat yozish darsini boshlaymiz" -deb qoldilar, chunki shu husnixatlari urush o'choqlarida kerak bo'lganini, urushdan keyin ham, xalqimizni og'irini yengil qilishda foyda berayotganini aytib berdilar. Bobomni kasblari yo'l-qurilish bo'yicha muhandis, o'qituvchilik buvimi kasblari. Bobom qanday qilib o'qituvchilik qilar ekanlar bizga deb o'ylab qoldim. Lekin bobom menga haqiqiy ustoz bo'ldilar. Haligacha hamma vrachlarni yozushi tushunarsiz, 35 yil to'lgan bo'lsayam kasb faoliyatizingiza, sizni husnixatingiz chiroyi va tushunarli deb aytishadi. Ha, bunda mening bobojonimning xizmatlari cheksiz deb yodga olaman. Ruhlari shod bo'lsin.

*Dilfuza TURDIYEVA
1-Gospital pediatriya va no'ananaeviyy tibbiyot asoslari*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRLARI: Gospital bolalar xirurgiyasi, bolalar onkologiyasi; Xorijiy tillari; O'zbek tili va adabiyoti; Ambulatoriya tibbiyoti, jismoniy tarbiya;

DOTSENTLAR: Pedagogika va psixologiya; Fuqarolik jamiyat. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti; Allergologiya; Bolalar yuqumli kasalliklari; Neonatologiya; Fakultet bolalar xirurgiyasi; Travmatologiya, ortopediya, bolalar travmatologiyasi, ortopediyasi; UASH-terapiya; Klinik farmakologiya; Tibbiy va biologik kimyo; Fiziologiya; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi; Shoshilinch pediatriya, xalokat tibbiyoti; 2-Gospital pediatriya noananaviy tibbiyot asoslari; Anatomiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasaliklari, Ambulatoriya tibbiyoti; Jismoniy tarbiya.

KATTA O'QITUVCHILAR: Xorijiy tillari, Akusherlik va ginekologiya, bolalar Ginekologiyasi

O'QITUVCHILAR: O'zbek tili va adabiyoti.

ASSISTENTLAR: Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Gematologiya; Xirurgik kasalliklari; Farmakologiya; Ambulatoriya tibbiyoti, jismoniy tarbiya; Travmatologiya, ortopediya, bolalar travmatologiyasi, ortopediyasi; Tibbiy genetika; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi; Fakultet bolalar xirurgiyasi; Anatomiya; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi; Fakultet pediatriya; Teri tanosil, bolalar teri tanosil kasalliklari, OITS; Neyroxirurgiya va bolalar neyroxirurgiyasi; UASH-terapiya; Klinik farmakologiya.

**Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223,
Tosh PTI. Avtobuslar: 115,19 ToshPTI bekti. 2020.08.05.**

 <p style="text-align: center;">SALOMLATIKH — TUMAN BOYLIGI — KIZILOROD VARDI — BOGDUSTOSSIMI PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, A.I. Iskandarov, K. Haitov, T.S. A'zamho'jayev, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, S.S. Gulyamov, Nashr uchun mas'ul: R. G'o'chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinnbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223 Cho'lpox nomidagi NMIU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi. Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko'chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nuxsa. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	---	---